

## RITORIKA TURLI OLIMLAR TALQINIDA

**Hilola To‘rayevna Xujaniyazova**

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,*

*Ingliz tili 3-fakulteti, ingliz tili nazariy aspektlari №3 kafedrasida o‘qituvchisi,*

[hilola.x.t@gmail.com](mailto:hilola.x.t@gmail.com)

**Annotatsiya** Maqolada ritorika terminiga turli olimlar tomonidan berilgan fikrlar ko‘rib chiqilgan bo‘lib, mavzuni o‘rganish jarayonida ko‘plab bir–biriga mutanosib, ba‘zi hollarda esa bir-biriga o‘xshamagan fikrlar uchradi. Maqolada olimlar tomonidan berilgan fikrlar muallif tomonidan o‘rganilgan va tahlil qilingan. Ushbu maqola qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik kabi yo‘nalish izlanuvchilari uchun tadqiqot ishlarida manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

**Kalit so‘zlar:** *Ritorika, nutq, ba‘z, notiqlik, va ‘zxon;*

**Abstract** In the article, the opinions given to the term rhetoric by various scientists were considered, and in the process of studying the topic, many opinions were found that were proportional to each other, and in some cases, they were not similar to each other. The opinions given by scientists in the article were studied and analyzed by the author. This article can serve as a source of research work for students of such fields as comparative literature and hybrid linguistics.

**Keywords:** *Rhetoric, speech, baz, eloquence, preacher;*

**Аннотация** В статье были рассмотрены мнения, высказываемые по поводу термина «риторика» различными учеными, и в процессе изучения темы было обнаружено множество мнений, пропорциональных друг другу, а в ряде случаев и не похожих друг на друга. Мнения, высказанные учеными в статье, были изучены и проанализированы автором. Данная статья может служить источником исследовательской работы для студентов таких направлений, как сравнительное литературоведение и гибридная лингвистика.

**Ключевые слова:** *риторика, речь, баз, красноречие, проповедник;*

Ma‘lumki, nutq madaniyatining me‘yoriy, axloqiy, kommunikativ va ritorik aspektlari mavjud bo‘lib, ularning har bittasi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Shu jumladan, nutq madaniyatining ritorik aspekti ham uning me‘yoriy, axloqiy va kommunikativ aspektlari uyg‘unligida tildan nutqda unumli va o‘rinli foydalanish usullarini o‘zida mujassamlashtirsa–da, boshqa aspektlardan farqli o‘laroq asosiy e‘tibor til vositalarini tinglovchiga muayyan ta‘sir o‘tkazish maqsadida qo‘llashga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Taniqli olim, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti bo‘lim boshlig‘i, f.f.n., Abduvahob Madvaliev tahriri ostidagi “O‘zbek tili izohli lug‘ati”da ritorika so‘zi quyidagicha talqin qilinadi: [yun. rhetorike] 1. Antik davrda va keyingi davrlarda notiqlik san‘ati va umuman badiiy nasr haqidagi fan; notiqlik

nazariyasi va san’ati. 2. Balandparvoz, tamtaroqli, lekin quruq, mazmunsiz nutq, bayon. Shoir marlik, jasurlik haqida kuylaganda, bir tomonlama quruq maqtov, balandparvoz, xissiz ritorikadan qochadi (O’zbek tilining izohli lug’ati., 2018). “O’zbek tili izohli lug’ati”dagi so’zning birinchi ma’nosi talqinidan ko’rinadiki, ritorika san’at darajasiga ko’tarilgan, unga notqlik san’ati deya ta’rif berilgan. Ammo ikkinchi ma’noga tarifda ritorika mutlaqo aksincha, soxta va balandparvoz gaplar sifatida tilga olinadi. Shuningdek, yana bir iste’dodli olim, nozikta’b shoir Ilhom Qahhorov o’z “Notqlik san’ati” kitobida yozishicha, “ ritorika (grekcha rhetorike – “notqlik san’ati”) – notqlik san’ati haqidagi fan bo’lib, u auditoriya oldida nutq qilish mahoratini, o’z nutqi yordamida tinglovchilarga samarali ta’sir qilish sirlarini, notqlik madaniyatini o’rgatadi” (Ilhom Qahhorov., 2015) Haqiqatdan ham, barcha insonlar so’zlash va eshitish qobiliyatiga ega, bir-biri bilan muloqot qiladi, o’z fikrini nutqda ifodalaydi, bu nutq san’at darajasiga ko’tarilishi mumkin. Buning uchun ifodalanayotgan fikr maqsadli va mohirona tinglovchini jalb qila oladigan va ohir-oqibat uni biron harakatga undaydigan til vositalari yordamida verballashishi lozim bo’ladi.

Ritorika so’zining ma’no maydoni rus olimi S.A.Kuznetsovning “Большой толковый словарь русского языка” da quyidagicha berilgan:

1. [grekcha. rhetorike] So’zamollik nazariyasi; notqlik san’ati. Ritorika qoidalar. Ritorikaning nozik jihatlari. XX asrning o’rtalaridagi samarali nutqiy muloqot shartlari va shakllari. 2. Bayonni keragidan ortiq darajada ko’tarish, bo’rttirish. Bo’sh ritorika. Ritorikaga tushish. Nutqda ritorika ko’a, mantiq esa kam. 3. Rossiyada qadimda diniy seminariyadagi kichik sinflarning nomlanishi (Kuznetsov S.A., 2000). Demak, rus lug’atshunosligida ritorika bir tomondan san’at, fan deb izohlansa, ikkinchi tomondan ortiqcha balandpavozlik, dabdabalilik deya ham qaraladi. Bunday xulosaga kelinishiga sabab ritorikaning kelib chiqish tarixiga ham borib taqaladi va bu haqida keyingi bo’limlarda batafsil to’xtab o’tamiz.

E’tiborni ingliz tili lug’atlariga qaratadigan bo’lsak, ularda ham ritorikaning o’ziga xos talqinlariga guvoh bo’lamiz: Ritorika - (ot) odamlarga ta’sir ko’rsatishga qaratilgan nutq yoki xatning uslubi. a) haqiqat bo’lmasada, odamlarda taassurot hosil qilishga qaratilgan og’zaki yoki yozma nutq. b) tildan odamlarga samarali ta’sir ko’rsatish uchun foydalanishni taqazo qiladigan san’at adabiyoti (Rhetoric – (noun) a style of speaking or writing that is intended to influence people. a) A style of speaking or writing that is intended to impress people but not is honest. b) Literature the art of using language in a way that is effective or that influences people) (Macmillan English dictionary, 2018).

Ingliz lug’atshunoslari tomonidan yaratilgan “Macmillan English dictionary”, “Oxford Advanced Learner’s Dictionary” kabi lug’atlardagi izohlarga ko’ra, ritorika odamlarga ta’sir etuvchi vosita sifatida baholanadi. Ya’ni insonlarga ta’sir o’tkazish uchun so’zning qudratidan unumli foydalanish va uni og’zaki yoki yozma tarzda bayon etish tushuniladi (Macmillan English dictionary, 2018).

Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqib, har bir millat xalqning hayoti va dunyoqarashidan kelib chikib o’z olam manzarasini milliy tilda aks ettiradi. Lug’atlardan

o‘rin olgan so‘zlar ta‘rifidagi o‘xshashlik va farqli jihatlar millatning olam manzarasidagi o‘xshashlik va o‘ziga xoslikka borib taqaladi. Shunday qilib, o‘zbek va ingliz tili lug‘atlarida ritorika ishontirish va undash san‘ati deya baholansa, rus tili manbalarida balandparvozlik deb ham ta‘riflanadi. O‘xshash tomonlari – ritorika har bir millat ta‘birida san‘at darajasiga ko‘tarilishidir. Ritorika haqida ko‘plab olimlar, tarixchilar, tilshunoslar egallagan bilim va tajribalaridan kelib chiqqan holda o‘z fikrlarini bildirishgan. Buyuk yunon faylasufi va o‘z zamonasining notiqalaridan bo‘lgan Arastu ritorikani ishontirish usullari haqidagi bir bilim sifatida hamda insonlarni ishontirishning amaliy san‘ati sifatida tushungan (M.Mahmudov, 2018). Darhaqiqat, so‘zning kuchi shunchalik qudratliki, fikr u bilan qanchalik darajada kuchli ifodalansa, u rost yoki yolg‘onligidan qat‘iy nazar insonni bu fikrga ishontirish mumkin bo‘ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, aytish mumkinki, ritorika bu nutq, shu bilan birga oddiy nutqdan farq qilgan holda ritorika san‘at darajasidagi nutq desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki, ritorika sifatida ko‘radigan har bir nutq o‘z auditoriyasi va maqsadiga ega va o‘ziga xos tarzda jalb qilish xususiyatiga ega va albatta bunday nutqni san‘at deya olamiz.

Yunon notiqalaridan biri Sitseron “ritorika inson umummadaniyatining bir qismi bo‘lib, fikrni adabiy til me‘yorlariga muvofiq to‘g‘ri, erkin, aniq, mantiqan izchil, yoqimli va ta‘sirchan bayon etishdir” (Sobirov U., 2010) deb fikr bildiradi. Demak, nutqni ritorika darajasiga olib chiqish uchun, ya‘ni ma‘lum bir ma‘noda san‘at darajasiga yetkazish uchun nutq mantiqan izchil, grammatik xatolarsiz, leksik jihatdan to‘g‘ri so‘zlar tanloviga ega bo‘lishi lozim.

Zamonaviy rus olimlaridan yana biri G.V.Kubits o‘zining tadqiqotlarida ritorika – bu xalq oldida chiqish qilish san‘ati haqidagi fan (G.V.Kubits.,2012) degan xulosani ta‘kidlaydi. Albatta, nutq tinglovchilarga qaratilgan bo‘ladi, tinglovchisi bo‘lmagan nutq ritorika bo‘lolmaydi. Shu bilan birga omma oldida nutq so‘zlash bir kishi yoki kichik davraga qaratilgan nutqdan farqlanadi. Bunga sabab, notiqalar omma oldiga chiqish oldidan ma‘lum me‘yorlar va qoidalar asosida nutqlarini hozirlashadi va bunda ritorika qonun-qoidalariga amal qilishadi. Yillar mobaynida bu ritorik qoidalar fan darajasiga ham kelib qoladiki, bunday fan insonlar uchun zarurligi barcha gumonlardan xolidir. Anglashilindiki, ritorika – bu asosan auditoriyaga ta‘sir o‘tkazish tilining turli shakllari hamda ishontira olish usullari haqidagi fandır (Volodina S.I., 2002).

Yana bir rossiyalik olim G.K.Trofimova o‘z ijod namunalarida “ritorika – bu tafakkur majmuasi va xalq qarshisida nutq irod qilish san‘ati, ifodali nutq san‘atidir. San‘at sifatida u she‘riyatga, aktyorlik va rejissyorlik mahoratiga yaqin hisoblanib, yuz va tana harakatlarini o‘rganadi, ovoz va his–tuyg‘ularni boshqarishni o‘rgatadi” (G.K.Trofimova., 2020) deya ta‘kidlaydi. Bu fikrda ritorika tushunchasi qo‘shimcha tarzda aktyorlik va rejissyorlik mahoratiga yaqinlashtiriladi. Bilamizki, aktyorlik va rejissyorlik kasblari og‘ir va uzoq tayyorgarlik talab qiladigan kasblardan biridir, ritorikaning bu san‘atga tenglashtirilishi uning oson bo‘lmagan mehnat talab qilishini ifodalaydi (Volodina S.I., 2002). Omma oldida nutq so‘zlash uchun notiqdan og‘ir mehnat

va qobiliyat talab qilinadi, shu tufayli ritorika ham mana shunday mashaqqatli san‘at tarzida e‘tirof etiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bugungi kunda notiqlik san‘atining turlari fikr almashuv sohalariga mos kelib, ijtimoiy–siyosiy, ijtimoiy–maishiy, akademik, diniy, sud nutqlarga ajratilib, ular, o‘z navbatida, turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Har zamonda ham chiroyli va ma‘noli gapirish qadrlangan. Bu ko‘nikma orqali insonlar juda katta muvaffaqiyatlarga erishganlar. Bugungi kunda ham aynan ritorika fanini puxta o‘zlashtirganlar har qanday sohada katta yutuqlarga erishmoqdalar. Suhbatlashuv san‘atining barcha jihatlarini qamrab oladigan ritorika bugun fan sifatida shakllanganligini, uni egallagan shaxslar esa kishilarni ishontirish va ularning mehrini qozonish bo‘yicha tengsiz imkoniyatlarga ega. Aynan ritorika yordamida inson o‘z nutqini ravon va chiroyli, ishonchli va ta‘sirli, samarali va muvaffaqiyatli xususiyatlar bilan boyitadi, aspektlarini texnik jihatdan to‘g‘ri tuza oladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G.V.Kubits., Ritorika yuristov. Uchebnoye posobiye. Chelyabinsk, OOO “Poligraf–Master”, 2012
2. Kuznetsov S.A. Bolshoy tolkoviy slovar russkogo yazika. – Sankt Peterburg. Norint, 2000. – 1536 s.
3. M.Mahmudov., Arastu. Axloqi kabir. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. T., 2018.
4. Macmillan English dictionary. For advanced learners. Second edition. – UK. University of Liverpool, 2012. – P. 1277–1278.
5. Notiqlik san‘ati 170 maslahat. Muallif: Ilhom Qahhorov. Nashriyot: Turon zamin ziyo, Toshkent. Nashr yili: 2015. Соби́ров У. Юри́стни́нг нутқ мадания́ти. – Тошкент: Янги нашр, 2010. – 208 б.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. /A. Madvaliyev tahr. ost. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.
7. Volodina S.I. Yuridicheskaya ritorika v deyatelnosti advokata po ugolovnim delam: Avtoref. diss. ...kand. yurid. nauk. – M.: 2002. – 32 s.